

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining intellektual mulk sohasidagi
qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan tadbirkorlik subyektlarida
tekshiruvlar o‘tkazish faoliyatiga “xavfni tahlil etish” tizimini joriy etish tartibi
to‘g‘risida
NIZOM**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3666-son qarori, 2018-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5490-son Farmoni, 2022-yil 13-sentabrdagi “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–374-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 611-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik), shu jumladan hududiy adliya organlarining tadbirkorlik subyektlarida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazish borasidagi faoliyatiga “xavfni tahlil etish” tizimini joriy etish tartibini belgilaydi.

I. Umumiy qoidalar

1. Vazirlik va hududiy adliya organlarining tegishli tarkibiy bo‘linmalari tomonidan tekshirilishi lozim bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash mazkur nizom talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

2. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida “xavfni tahlil etish” natijalari asosida o‘tkaziladigan tekshiruvlar vakolatli organ bilan kelishish tartibida amalga oshiriladi.

3. Tadbirkorlik subyektining qonunchilik hujjatlarini buzish xavfi darajasini tahlil qilish jarayoni tadbirkorlik subyekti faoliyatini to‘xtatib turish, unga to‘sqinlik qilish yoki faoliyatini amalga oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashishni nazarda tutuvchi xatti-harakatlarni istisno etadi.

4. Xavf darajasining tahlili quyidagi ma’lumotlarni o‘rganish asosida amalga oshiriladi:

ma'muriy ma'lumotlar (intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar, litsenziya shartnomalari va davlat organlarida mavjud boshqa hujjatlar);

davriy statistika ma'lumotlari, jumladan, avval huquqbuzarlik holatlari aniqlangan tadbirkorlik subyektini umumlashtiruvchi belgilar, xabarlar va boshqa korrelatsion tahlil natijalari;

yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan murojaatlar;

ommaviy axborot vositalaridan yoki boshqa tashqi manbalardan (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) olingan ma'lumotlar;

nazorat xaridi natijalari asosida olingan ma'lumotlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan va tadbirkorlik subyektining odatiy faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmagan holda, davlat organlari va boshqa tashkilotlardan olinishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

5. Xavf darajasi tahlili jarayonida tadbirkorlik subyektidan hujjatlar va axborotlar talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

6. Vazirlik tomonidan "xavfni tahlil etish" tizimidagi tahlillar yiliga kamida bir marotaba yoki zaruratga ko'ra amalga oshiriladi.

"Xavfni tahlil etish" tizimidagi har bir tahlil kamida 10 ta tadbirkorlik subyektini qamrab olishi lozim.

7. Xavf darajasi tahlili faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarida Vazirlikning intellektual mulk sohasidagi vakolati doirasida o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektining Vazirlik vakolatiga kirmaydigan faoliyatini tahlil qilish va baholash taqiqlanadi.

8. Intellektual mulk sohasidagi qonunchilik hujjatlari qismida barcha tadbirkorlik subyektlari Vazirlik nazorati ostidagi subyektlar toifasiga kiradi.

II. Xavf darajalari tasnifi va baholash

9. Xavf darajasini baholash o'rganiladigan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan ko'rsatkichlar, sub-ko'rsatkichlar va mezonlarga tadbirkorlik subyektini faoliyatining muvofiqligini "ball" tizimi asosida baholash orqali amalga oshiriladi.

10. Baholash jarayoni o'rganiladigan ma'lumotlar asosida tadbirkorlik subyektini faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari haqida xabar beruvchi 6 ta asosiy ko'rsatkichni o'z ichiga oladi.

11. Har bir asosiy ko'rsatkich eng kamida 5 ta aniqlashtiruvchi sub-ko'rsatkichni o'z ichiga oladi.

12. Baholash jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mezonlar asosida sub-ko'rsatkichlar baholanadi. Sub-ko'rsatkichlarning bahosini umumlashtirish orqali har bir asosiy ko'rsatkich bahosi hisoblab chiqariladi.

Asosiy ko'rsatkichlar bahosini umumlashtirish orqali har bir tadbirkorlik subyekti faoliyatida huquqbuzarlik xavfi darajasining umumiy ballari aniqlanadi.

13. Mazkur nizomga 1-ilovada keltirilgan "Xavfni tahlil etish" tizimi bo'yicha baholash ko'rsatkichlari, sub-ko'rsatkichlari va mezonlari baholashni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

"Xavfni tahlil etish" tizimiga asosan o'tkazilgan tahlil natijalari mazkur nizomga 2-ilovada keltirilgan jadvalda aks ettiriladi.

Tahlil natijalari bo'yicha ma'lumotnoma mazkur nizomga 3-ilovadagi namunaviy shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi.

14. Amalga oshirilgan baholash natijasida aniqlangan xavf darajasining umumiy ballari asosida tadbirkorlik subyekti tomonidan huquqbuzarlik sodir etish xavfi quyidagi uch xil toifaga tasniflanadi:

huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori;

huquqbuzarlik sodir etish xavfi o'rtacha;

huquqbuzarlik sodir etish xavfi past.

15. Tahlillar natijasi asosida baholangan barcha tadbirkorlik subyektlari ballari umumiy yig'indisining 20 foiz qismini tashkil etuvchi eng yuqori xavf darajasi ballariga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori tadbirkorlik subyektlari sirasiga kiradi.

16. Baholash natijalariga muvofiq huquqbuzarlik xavfi yuqori baholangan tadbirkorlik subyektlarida tekshiruv o'tkazishni tashabbus qilishdan avval qonun buzilish holatlarini oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Huquqbuzarlik xavfi yuqori baholangan tadbirkorlik subyektlari doirasida tekshiruvlar o'tkazishga tashabbus bilan chiqish faqat profilaktik tadbirlar o'tkazilgandan so'ng hamda huquqbuzarlik sodir etish alomatlari ijobiy tomonga o'zgarmagan holatlardagina amalga oshirilishi mumkin.

17. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori tasnifidagi tadbirkorlik subyektida profilaktika tadbirlarini o'tkazmasdan va ularning natijasini kutmasdan quyidagi holatlar doirasida tekshiruv o'tkazilishi mumkin:

inson hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishining yuqori xavfi mavjud bo'lganda;
jamoat xavfsizligiga zarar yetkazish xavfining oldini olish uchun kechiktirib bo'lmaydigan holatlar;

atrof muhitga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlanganda;

jismoniy va yuridik shaxslar, davlat organlari va boshqa tashkilotlarga moddiy zarar yetkazilayotganligi holatlari aniqlanganda;

tekshiruvlar o'tkazilishini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari mavjud bo'lganda;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

18. Xavf darajasi yuqori baholangan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish vakolatli organ bilan kelishilgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

19. Tahlillar natijasi asosida baholangan barcha tadbirkorlik subyektlari ballari umumiy yig'indisining xavfi yuqori bo'lgan 20 foiz qismini istisno etgan holda, 50 foiz qismini tashkil etuvchi eng yuqori xavf darajasi ballariga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari huquqbuzarlik sodir etish xavfi o'rtacha tadbirkorlik subyektlari sirasiga kiradi.

20. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi o'rtacha tasnifidagi tadbirkorlik subyektida qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkaziladi.

21. Keyingi davr uchun baholash natijalariga ko'ra, tadbirkorlik subyekti faoliyatini baholash natijasida salbiy o'zgarish kuzatilganda tadbirkorlik subyekti faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda tekshiruv o'tkazish mumkin.

22. Tahlillar natijasiga asosan huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori va o'rtacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari sirasiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari huquqbuzarlik sodir etish xavfi past bo'lgan tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

23. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi past baholangan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruv o'tkazilmaydi.

24. Huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori yoki xavfi o'rta tasnifidagi tadbirkorlik subyektida tekshirish o'tkazilgandan keyin ushbu tadbirkorlik subyekti ballari yangilanadi.

Qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkazilgandan so'ng huquqbuzarlik sodir etish alomatlari bartaraf etilib, bu haqda nazorat qiluvchi organ xabardor qilinganda ushbu tadbirkorlik subyektining bartaraf qilingan qism bo'yicha ballari yangilanadi.

III. Yakuniy qoidalar

25. Tekshiruvchi mansabdor shaxslar mazkur nizom talablariga rioya etishlari, tekshiruv munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan tijorat siri, xizmat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlar, shuningdek oshkor etilmaydigan axborotni

uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi, o'z vakolatlari va nazorat sohasi doirasidan tashqari masalalar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazmasligi shart.

26. Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik va to'sqinlik qilganlik, bunday faoliyatni asossiz to'xtatib qo'yganlik uchun tadbirkorlik subyektlariga yetkazilgan zarar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aybdorlardan undiriladi.

27. Mazkur nizom qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

28. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Tadbirkorlik subyektlarining
huquqlari va qonuniy
manfaatlarini himoya qilish
bo'yicha vakil**


Toshkent sh.,
2022-yil 12 28,
____-son



D. Kasimov

**O'zbekiston Respublikasi
Savdo-sanoat palatasi
raisi**

Toshkent sh.,
2022-yil 12 28,
____-son



D. Vaxabov

O‘zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligining intellektual mulk sohasidagi
qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi
yuzasidan tadbirkorlik subyektlarida
tekshiruvlar o‘tkazish faoliyatiga “xavfni
tahlil etish” tizimini joriy etish tartibi
to‘g‘risidagi nizomga
1-ilova

“Xavfni tahlil etish” tizimi bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlari, sub-ko‘rsatkichlari va mezonlari

№	Xavf turlarini baholash ko‘rsatkichlari, sub-ko‘rsatkichlari	Mezon (ball)	
		1 marta	2 va undan ortiq marta
1	Tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari) sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinmasligi		
1.1	Tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisi) yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan tarzda tayyorlash.	10	20
1.2	Tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisi) yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan tarzda qo‘llash.	10	20
1.3	Tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisi) yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan tarzda olib kirish.	10	20
1.4	Tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisi) yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan tarzda savdoga taklif etish.	10	20
1.5	Tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisi) yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan tarzda sotish.	10	20
1.6	Tovar belgisini (xizmat ko‘rsatish belgisi) yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan o‘zgacha tarzda fuqarolik muomalasiga kiritish yoki ularni shu maqsadda saqlash.	10	20
1.7	Tovar belgisi (xizmat ko‘rsatish belgisi) bilan adashtirib yuboradigan darajada aynan o‘xshash bo‘lgan bir xildagi tovarlarni belgilash.	10	20
2	Geografik ko‘rsatkich va tovar kelib chiqqan joy nomi sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinmasligi		
2.1	Ro‘yxatdan o‘tkazilgan geografik ko‘rsatkichdan ishlab chiqarilayotgan, sotuvga taqdim etilayotgan, sotilayotgan, ko‘rgazmalarda va yarmarkalarda namoyish etilayotgan yoki boshqacha tarzda O‘zbekiston Respublikasi hududida fuqarolik muomalasiga kiritilayotgan yoxud shu maqsadda saqlanayotgan yoki tashilayotgan yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlarda, tovarlarning yorliqlarida, o‘rovlarida qonunga xilof ravishda foydalanish.	5	10
2.2	Ro‘yxatdan o‘tkazilgan geografik ko‘rsatkichdan tovarlarni fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan blankalarda, hisobvaraqlarda, boshqa hujjatlarda va bosma nashrlarda qonunga xilof ravishda foydalanish.	5	10
2.3	Ro‘yxatdan o‘tkazilgan geografik ko‘rsatkichdan tovarlarni sotish to‘g‘risidagi takliflarda, shuningdek e‘lonlarda, peshlavhalarda va reklamada qonunga xilof ravishda foydalanish.	5	10

2.4	Ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan undan foydalanish, hatto bunda, agar tovar ishlab chiqarilgan haqiqiy joy ko'rsatilgan bo'lsa yoki geografik ko'rsatkichdan uni tarjima qilgan holda yoxud "xildagi", "turdagi", "o'xshatib ishlangan" degan va boshqa shunga o'xshash so'zlar bilan qo'shib foydalanilayotgan bo'lsa ham.	5	10
2.5	Ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichdan undan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning reyestrda ko'rsatilgan xususiyatlarga ega bo'lmagan yoxud geografik obyekt chegarasidan tashqarida ishlab chiqarilgan tovarga nisbatan foydalanishi.	5	10
2.6	Ro'yxatdan o'tkazilgan geografik ko'rsatkichga o'xshash belgidan tovar ishlab chiqarilgan joy yoki tovarning xususiyatlari xususida iste'molchilarni chalg'itadigan tarzda har qanday tovarlar uchun foydalanish.	5	10
2.7	Tovar kelib chiqqan joy nomini tovarda, uning idishi hamda o'rovida, peshlavhalarda, rasmiy blankalarda, reklamada, bosma nashrlarda va tovarni fuqarolik muomalasiga kiritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarda qonunga xilof ravishda ishlatish	5	10
2.8	Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnomasi bo'lmagan shaxslarning tovar kelib chiqqan joyning ro'yxatdan o'tkazilgan nomidan foydalanishi, hatto basharti bunda tovar kelib chiqqan joyning haqiqiy nomi ko'rsatilgan yoki nom tarjima qilib yoxud "ko'rinishdagi", "turdagi", "usuldagi" va shunga o'xshash so'zlarni qo'shib qo'llanilgan taqdirda ham, shuningdek har qanday tovar kelib chiqqan joy nomi va tovarning alohida xususiyatlari xususida iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan o'xshash belgilardan foydalanish.	5	10
3	Firma nomlari sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinmasligi		
3.1	Firma nomini rasmiy blankalarda, muhrlarda, shtamlarda va yuridik shaxsning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarda qonunga xilof ravishda aks ettirish.	5	10
3.2	Firma nomini tovarlarda, ularning idishi va o'rovida qonunga xilof ravishda ishlatish.	5	10
3.3	Firma nomini reklamada, peshlavhalarda, bosma ma'lumotnomalarda qonunga xilof ravishda ishlatish.	5	10
3.4	Firma nomini hisobvaraqlarda qonunga xilof ravishda ishlatish.	5	10
3.5	Firma nomini bosma nashrlarda qonunga xilof ravishda ishlatish.	5	10
3.6	Firma nomini tovarlarni O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladigan ko'rgazmalar va yarmarkalarda namoyish etish vaqtida qonunga xilof ravishda ishlatish.	5	10
4	"Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya qilinmasligi		
4.1	Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash.	5	10
4.2	Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz qo'llash.	5	10
4.3	Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz import qilish.	5	10
4.4	Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz sotishga taklif etish.	5	10

4.5	Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz sotish.	5	10
4.6	Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz fuqarolik muomalasiga boshqa yo'sinda kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish.	5	10
4.7	Ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni ruxsatsiz qo'llash yoxud ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulda bevosita tayyorlangan mahsulotni fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish.	5	10
5	“Seleksiya yutuqlari to'g'risida”gi Qonun talablariga rioya qilinmasligi		
5.1	Seleksiya yutug'ining urug'lik, ko'chat yoki nasl materialini ruxsatsiz yetishtirish va takror yetishtirish (ko'paytirish).	5	10
5.2	Seleksiya yutug'ining urug'lik, ko'chat yoki nasl materialini ruxsatsiz nav yoki nasllik konditsiyasiga yetkazish.	5	10
5.3	Seleksiya yutug'ining urug'lik, ko'chat yoki nasl materialini ruxsatsiz sotish uchun taklif qilish.	5	10
5.4	Seleksiya yutug'ining urug'lik, ko'chat yoki nasl materialini ruxsatsiz sotish va boshqa usullarda o'tkazish.	5	10
5.5	Seleksiya yutug'ining urug'lik, ko'chat yoki nasl materialini ruxsatsiz O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish va olib kirish.	5	10
6	Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilinmasligi		
6.1	Ijrochining ismi-sharifga bo'lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish.	10	20
6.2	Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash.	10	20
6.3	Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini tarqatish.	10	20
6.4	Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini barchaning e'tiboriga yetkazish.	10	20
6.5	Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida yolg'on axborotni ko'rsatish.	10	20
6.6	Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning ishlab chiqarish joylari to'g'risida yolg'on axborotni ko'rsatish.	10	20
6.7	Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda haq to'lash to'g'risidagi talablarni buzish.	10	20
6.8	Mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar obyektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish	10	20

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining intellektual
mulk sohasidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi
yuzasidan tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlar o'tkazish
faoliyatiga "xavfni tahlil etish" tizimini joriy etish tartibi
to'g'risidagi nizomga
3-ilova

**“Xavfni tahlil etish” tizimiga asosan o'tkazilgan tahlil natijalari bo'yicha
MA'LUMOTNOMA (namunaviy shakl)**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi _____ (tarkibiy
bo'linma, lavozim, F.I.O) tomonidan “Xavfni tahlil etish” tizimiga asosan asosan
tahlil o'tkazildi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik alomatlari haqida xabar
beruvchi baholash mezonlari bo'yicha _____ tadbirkorlik subyektlarining
ko'rsatkichi ___ ballni (to'plangan ball ko'rsatiladi) tashkil etdi.

Xususan, _____ talablari (talablari buzilgan normativ-huquqiy hujjat
ko'rsatiladi) buzilganligi aniqlandi.

Baholash natijalariga muvofiq huquqbuzarlik xavfi yuqori tasnifidagi
_____ tadbirkorlik subyektlarida qonun buzilish holatlarining oldini olishga
qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkazildi.

_____ da profilaktika tadbirlari o'tkazilgandan so'ng ham
huquqbuzarlik sodir etish alomatlari ijobiy tomonga o'zgarmaganligini inobatga
olgan holda mazkur tadbirkorlik subyektlarida tekshirish o'tkazilishi maqsadga
muvofiq hisoblanadi.

Malumot uchun: Nizomning 17-bandida keltirilgan holatlar mavjud bo'lganda
ma'lumotnomaning 5-xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etiladi:

Nizomning 17-bandida keltirilgan holatlar (holat nomi va qisqacha tasnifi
keltiriladi) mavjud bo'lganligi sababli profilaktika tadbirlari o'tkazmasdan va
ularning natijasini kutmasdan mazkur tadbirkorlik subyektlarida tekshirish o'tkazilishi
maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

(lavozim)

imzo

F.I.O.

sana